



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **DIZARTRIYALI BOLALARNING SENSOMOTOR SOHASINI NEYROPSIXOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**Toxtiyarova Shaxnoza Erkinovna**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, dotsenti (DSc)

**Isxakova Madina Zokirxo‘ja qizi**

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, 2-kurs magistranti

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada dizartriya bolalarning sensomotor sohasini neyropsixologik yondashuv asosida rivojlantirish muammosi kompleks tarzda yoritilgan. Bolalar neyropsixologiyasining nazariy asoslari, olimlar olib brogan tadqiqotlari, nutq buzilishlarining mexanizmlari hamda afferent va efferent buzilishlarning o‘ziga xos jihatlari ilmiy tahlil qilingan. Dizartriya kuzatiladigan motor va kinestetik jarayonlardagi nuqsonlarning nutq faoliyatiga ta’siri ochib berilgan. Maqolada neyropsixologik yondashuvning diagnostik va korreksion imkoniyatlari asoslab berilib, sensomotor rivojlantirishda kompleks ta’sirning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, dizartriya bolalarda artikulyatsion apraksiya, kinetik va kinestetik buzilishlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil etilgan. Dizartriya bolalarning sensomotor sohasini neyropsixologik yondashuv asosida rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan maxsus ta’limiy dastur keltirilib, dastur maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor-motor, gnostik funksiyalar, praksis va umumiy harakat faolligini rivojlantirishga qaratilgan haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** dizartriya, ontogenez, sensomotor rivojlanish, bolalar neyropsixologiyasi, neyropsixologik yondashuv, afferent va efferent buzilishlar, artikulyatsion apraksiya, praksis, sensor-gnostik funksiyalar, neyropsixologik diagnostika, korreksion-logopedik ishlar.

## **РАЗВИТИЕ СЕНСОМОТОРНОЙ СФЕРЫ У ДЕТЕЙ С ДИЗАРТРИЕЙ НА ОСНОВЕ НЕЙРОПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

**Тохтиярова Шахноза Эркиновна**

Узбекский национальный педагогический университет имени Низами, доцент (DSc)

**Исхакова Мадина Зокирхожа кизи**

Узбекский национальный педагогический университет имени Низами, магистрант 2 курса

### **Аннотация**

В данной статье комплексно освещается проблема развития сенсомоторной сферы у детей с дизартрией на основе нейропсихологического подхода. Проанализированы теоретические основы детской нейропсихологии, результаты научных исследований, механизмы речевых нарушений, а также особенности афферентных и эфферентных расстройств. Раскрыто влияние нарушений моторных и кинестетических процессов на речевую деятельность при дизартрии. В статье обоснованы диагностические и коррекционные возможности нейропсихологического подхода, показана значимость комплексного воздействия в развитии сенсомоторной сферы. Также проанализированы особенности проявления артикуляционной апраксии, кинестетических и кинестетических нарушений у детей с дизартрией. Представлена специальная образовательная программа, разработанная с целью развития сенсомоторной сферы у детей с дизартрией на основе нейропсихологического подхода. Показано, что программа направлена на развитие сенсомоторных и гностических функций, праксиса и общей двигательной активности у детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** дизартрия, онтогенез, сенсомоторное развитие, детская нейропсихология, нейропсихологический подход, афферентные и эфферентные

нарушения, артикуляционная апраксия, праксис, сенсорно-гностические функции, нейропсихологическая диагностика, коррекционно-логопедическая работа.

## **DEVELOPMENT OF THE SENSORIMOTOR SPHERE IN CHILDREN WITH DYSARTHRIA BASED ON A NEUROPSYCHOLOGICAL APPROACH**

**Toxtiyarova Shakhnoza Erkinovna**

Uzbek National Pedagogical University named after Nizami, Associate Professor (DSc)

**Iskhakova Madina Zokirkhoja qizi**

Uzbek National Pedagogical University named after Nizami, 2nd Year Master's Student

### **Abstract**

This article comprehensively examines the problem of developing the sensorimotor sphere in children with dysarthria based on a neuropsychological approach. The theoretical foundations of child neuropsychology, findings of scientific research, mechanisms of speech disorders, and the specific features of afferent and efferent impairments are analyzed. The influence of motor and kinesthetic deficits on speech activity in dysarthria is revealed. The article substantiates the diagnostic and corrective potential of the neuropsychological approach and highlights the importance of a comprehensive intervention in sensorimotor development. It also analyzes the manifestations of articulatory apraxia, kinetic and kinesthetic disorders in children with dysarthria. A specialized educational program aimed at developing the sensorimotor sphere in children with dysarthria is presented. The program is focused on enhancing sensorimotor and gnostic functions, praxis, and general motor activity in preschool children.

**Keywords:** dysarthria, ontogenesis, sensorimotor development, child neuropsychology, neuropsychological approach, afferent and efferent impairments, articulatory apraxia, praxis, sensorimotor and gnostic functions, neuropsychological diagnostics, speech therapy correction.

Bolalar neyropsixologiyasi bolalar klinik psixologiyasining zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u psixik funksiyalarning shakllanishi, bolaning kognitiv sohasi, asab tizimining rivojlanishi, shuningdek, bolalik davrida miyaning organik shikastlanishi va boshqa buzilishlarda ruhiy funksiyalar buzilishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Bolalar neyropsixologiyasi neyrobiologiya hamda funksional tizimlar nazariyasi evolyutsiyasining yangi qoidalarini o'z ichiga olgan mustaqil psixologik fan sifatida paydo bo'lgan va rivojlanib bormoqda. Bolalar neyropsixologiyasining asosiy vazifasi bolalar nerv sistemasi shikastlanganda yuzaga keladigan oliy psixik funksiyalar (OPF), xulq-atvor va umumiy ruhiy rivojlanish buzilishlarini tavsiflashdan iborat. Bunda bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini miya faoliyatining o'ziga xos shakllanishi va uning tarkibiy-funksional tuzilishi bilan bog'liq holda o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda neyropsixologiya nafaqat miyada organik lokal jarohatlari bo'lgan bemorlarni yoki endogen, genetik va funksional kasalliklar bilan og'rigan bemorlarni, balki "klinik bo'lmagan" buzilish holatlarini, ya'ni bolalar rivojlanishida kuzatiladigan individual farqlarni differensial o'rganish neyropsixologiyasi, rivojlanishda ortda qolishning individual xususiyatlari, patologik bo'lmagan rivojlanish, rivojlanishning o'ziga xos ijtimoiy holatlari, masalan, jamiyatdan ajralib qolish holatlarini ham o'rganadi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Mutaxassislarining bolalar neyropsixologiyasiga qiziqishining ortishiga, birinchi navbatda, turli xil rivojlanishda ortda qolayotgan yoki atipik rivojlanayotgan bolalarni differensial va funksional tashxislashda neyropsixologik diagnostikaning katta imkoniyatlari mavjudligi sabab bo'lmoqda. Ikkinchidan, nevrologiyaning rivojlanishi va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish,

masalan, zamonaviy neyrovizual usullar, turli xil patologiyalari (masalan, logonevroz, shizofreniya yoki autizm) boʻlgan bolalarda nuqsonning organik sabablarini yaqqol aniqlash imkonini berdi. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy bolalar neyropsixologiyasi integrativ, koʻp tarmoqli yoʻnalish boʻlib, uning asoschisi E. Lenneberg hisoblanadi. Aynan shu tendensiyalar tufayli bolalar neyropsixologiyasi nafaqat tibbiyot sohasida, balki taʼlim sohasida ham bolalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Chet elda bolalar neyropsixologiyasining shakllanish tarixini tahlil qilib, M. S. Tramontan va K. Hooper AQShda bolalar neyropsixologiyasi rivojlanishining toʻrt bosqichini aniqladilar, ular tashxislash jarayonlariga turli xil yondashuvlar bilan farq qiladi. AQShda qabul qilingan yondashuvga koʻra, bolaning neyropsixologik tekshiruvini har bir aqliy funktsiyani batafsil tekshirishni oʻz ichiga oladi. Bularga umumiy intellekt, maktab faoliyati (yutuqlari), nutq jarayonlari, fazoviy moʻljallash olish, sensomotor gnozisi, praksis, diqqat, xotira, oʻquv koʻnikmasi, mavhum fikrlash qobiliyati kabilari kiradi. Bundan tashqari, bolaning psixosozial yashash sharoitlari ham oʻrganiladi. Ingliz psixologi D'Selli bolalarning tafakkuri va nutqini rivojlantirish uchun "ijodiy qoʻl ishi"ga juda katta ahamiyat bergan. XVIII asrning taniqli rus maʼrifatchisi N. I. Novikov esa 1782-yilda "narsalar ustida harakat qilish uchun tabiiy turtki" nafaqat bolalar bu narsalar toʻgʻrisida bilim olishlarini, balki umuman aqliy rivojlanishni taʼminlaydigan asosiy vosita ekanini taʼkidlagan.

Bugungi kunda bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlaridan biri — dizartriyaning namoyon boʻlishi klinik, psixolingvistik, psixologik-pedagogik yoʻnalishlardan tashqari neyropsixologik yoʻnalishda ham oʻrganilmoqda. L. I. Belyakova va N. N. Voloskova ham oʻzlarining dizartriya haqidagi tadqiqotlarida dizartriyaning oʻrganishning neyropsixologik yoʻnalishi haqida batafsil maʼlumot keltirganlar.

### **Metodologiya**

Tadqiqot dizartriya bolalarning sensomotor sohasini neyropsixologik yondashuv asosida rivojlantirishga qaratilgan. Unda neyropsixologik diagnostika orqali afferent va efferent buzilishlar aniqlanib, artikulyatsion apraksiya, kinestetik va kinetik koʻnikmalar baholandi. Bolalar bilan individual va juftlik mashqlari, fazoviy, vizual va taktil treninglar, shuningdek, ijodiy va musobaqalashuv topshiriqlari orqali sensor-motor, gnostik funktsiyalar va praksis rivojlantirildi. Tadqiqot eksperiment va nazorat guruhlari asosida olib borilib, uch bosqichli dastur — tayyorgarlik, asosiy va yakuniy bosqichlar orqali harakat va nutq faoliyati nazorati hamda integratsiyasi taʼminlandi.

### **Tadqiqot natijalari va muhokama**

Neyropsixologik yondashuv bolaning motor va kognitiv koʻnikmalarini rivojlantirish ustida ishlashni oʻz ichiga oladi, bu esa nutq buzilishlariga kompleks taʼsir etishga imkon beradi. Neyropsixologik yoʻnalish miya tizimlarining turli buzilishlarida ruhiy jarayonlarning maxsus analizi va sintezi haqida maʼlumot beradi. Neyropsixologik yondashuv yordamida dizartriya afferent va efferent buzilishlar aniqlandi.

**Efferent buzilishlar** impuls oʻtkazuvchanligi buzilishlari hisoblanib, spastik parezlar, rigidlik, giperkinez, ataksiya kabi nutq faoliyatini nazorat qilishdagi tonik buzilishlar bilan namoyon boʻladi. Bular piramidal va ekstrapiramidal tizimlarning markaziy harakat buzilishlari, shuningdek, kortikal motor sohalarining buzilishlari bilan bogʻliqdir. Oʻtgan asrning 70-yillarida rus anatomi V. A. Betz birinchi marta miya yadrosining orqa (sensor) va old (motor) qismlarining nozik hujayraviy tuzilishini tasvirlab berdi va oldingi markaziy qismlarda uning nomi bilan atalgan ulkan piramidal hujayralarni ajratib koʻrsatdi. Betz hujayralari adabiyotlarda miya yadrosining motor hujayralari sifatida batafsil tavsiflangan. Efferent buzilishlar fonetik (talaffuz) nutq buzilishlarini keltirib chiqaradi.

**Afferent buzilishlar** esa nutq motor analizatori sohasidagi kinestetik tahlil va sintezning pastligi bilan bogʻliq boʻlib, bu "dasturlash" rejasidagi nuqsonlar, yaʼni maqsadli ixtiyoriy harakatlarni shakllantirishning buzilishi — artikulyatsion apraksiyani yuzaga keltiradi. Afferent

buzilishlar nutqning tovush tuzilishini amalga oshirishda fonemik nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Odatda artikulyatsion apraksiya o'ng va chap qo'llarda maqsadli harakatlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklar bilan birga kuzatiladi. Kinetik apraksiya — bu bitta artikulyatsion harakatdan boshqasiga o'tishdagi qiyinchilikdir. Kinestetik apraksiya esa artikulyatsion holatni egallay olmaslikdir.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda, dizartriya bolalarning sensomotor sohasida buzilishlar mavjudligi, ularga korreksion-logopedik yordam ko'rsatish xizmatida qo'shimcha neyropsixologik bilimlar yetishmasligi, didaktik ta'minotning yetarli emasligi va ishlarning qoniqarli tarzda tashkil etilmaganligi sababli quyida mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan dizartriya bolalarning sensomotor sohasini neyropsixologik yondashuv asosida rivojlantirish maxsus dasturi keltirilgan.

Maxsus dasturni tuzishda A. V. Semenovichning "O'rnini bosuvchi ontogenez" metodikasidan hamda nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning ta'lim va tarbiyasi bo'yicha L. Mo'minova, M. Ayupova, Sh. Shokirova, Sh. Toxtiyarova tomonidan taklif qilingan metodikalar va tavsiyalarga tayanildi.

Ta'limiy maxsus dasturning maqsadi — maktabgacha yoshdagi dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar muloqotiga asos bo'luvchi sensor-motor soha ko'nikmalarini shakllantirishda neyropsixologik-logopedik qo'llab-quvvatlash va yordam berishning yo'nalishlari hamda usullarini aniqlashdan iborat.

#### **Ta'limiy maxsus dasturning vazifalari:**

1. Dizartriya bolalarda nutq nuqsonlarini korreksiyalashda neyropsixologik usullardan foydalanish.
2. Dizartriya bolalar nutq nuqsonini korreksiyalash jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida "O'rnini bosuvchi ontogenez" metodikasidan foydalanish.
3. Dizartriya bolalarda ixtiyoriy umumiy tana harakatini faollashtirish orqali sensor-gnostik funksiyalarni rivojlantirish.
4. Praksis xususiyatlarini oshirish.
5. Nazorat va eksperiment guruhlarida sensor-motor rivojlanish dinamikasini o'rganish va taqqoslash.

Dizartriya bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlar qat'iy individual tarzda olib boriladi. Ba'zan vaziyatdan kelib chiqib, erishilgan natijani qiyosiy ko'rsatish uchun juftlikdagi mashg'ulotlar ham talab etiladi. Bu dizartriyaning klinik jihatdan turlicha namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Logoped har bir topshiriqni bajarayotgan bolaning qay darajada uddalay olayotganini nazorat qilib borishi, bolaning harakatlarini diqqat bilan kuzatishi lozim.

Ta'limiy maxsus dastur o'z ichiga 3 ta bosqichni qamrab oladi va har bir bosqichda ma'lum vazifalarni hal etish ko'zda tutiladi.

#### **1-bosqich. Tayyorgarlik bosqichi**

*(Umumiy motor funksiyalarni faollashtirish bosqichi)*

Mazkur bosqich A. R. Luriya tomonidan ajratilgan birinchi funksional blok — energetik blok faoliyatini faollashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, u umumiy faoliyat tonusi, diqqatning barqarorligi va harakat faolligini ta'minlash bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi.

Dizartriya bolalarda ushbu blok faoliyatining yetarli darajada shakllanmaganligi mushak tonusi buzilishlari, harakatlarning sustligi yoki haddan tashqari qo'zg'aluvchanligi, muvozanatning yetarli emasligi hamda sensor-motor integratsiyaning buzilishi bilan namoyon bo'lganligi sababli, 1-bosqichda olib borilgan logopedik-neyropsixologik ishlar organizmning umumiy funksional tayyorgarligini oshirishga qaratildi.

Bu bosqich quyidagi ishlarni amalga oshirishni talab etadi:

- umumiy ixtiyoriy motorikani rivojlantirish;
- vestibulyar apparat faoliyatini rivojlantirish;
- proprioretseptiv sezgirlikni oshirish;

- ko‘z-harakat muvofiqiligini oshirish.

### **2-bosqich. Asosiy bosqich**

*(Gnostik funksiyalarni rivojlantirish bosqichi)*

Dizartriyali bolalarda gnostik funksiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi eshitish, ko‘rish va taktil idrokning buzilishi, analizatorlararo integratsiyaning yetarli emasligi bilan ifodalanadi. Shu sababli asosiy bosqichning maqsadi ikkinchi funksional blok — axborotni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash blokining faoliyatini rivojlantirishga qaratildi. Ushbu blok sensor axborotni idrok etish, tahlil qilish va tanib olish jarayonlarini ta‘minlaydi.

Bu bosqich quyidagi ishlarni amalga oshirishni talab etadi:

- eshitish gnozisini rivojlantirish;
- ko‘rish (vizual) gnozisini rivojlantirish;
- taktil-somotagnostik funksiyalarni rivojlantirish;
- tana sxemasi va fazoviy idrokni shakllantirish.

Mazkur bosqichda olib borilgan tizimli ishlar sensor-motor integratsiyaning rivojlanishiga hamda nutq faoliyatining neyropsixologik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **3-bosqich. Yakuniy bosqich**

*(Praksis xususiyatlarini rivojlantirish bosqichi)*

Dizartriyali bolalarda harakat va nutq aktlarining ketma-ketligi buzilishi, harakatlarni rejalashtirish va nazorat qilishdagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo‘lganligi sababli, uchinchi bosqichda olib borilgan ishlar harakat va nutq faoliyatini ongli boshqarishni rivojlantirishga yo‘naltirildi.

Bu bosqich quyidagi ishlarni amalga oshirishni talab etadi:

- mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish;
- kinetik va kinestetik oral praksisni rivojlantirish;
- harakat va nutq faoliyati ustidan nazoratni shakllantirish.

Taklif etilgan metodikalarni bajarishdan oldin bolalarga namuna beriladi va tushuntiriladi. Metodikalarni bajarishda asosiy urg‘u bolalarning ijodiy faolligiga qaratiladi. Ya‘ni, bolalarning topshiriqni bajarishdagi ijodiy yondashuviga asosiy e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, bolalarning faolligini oshirish va topshiriqlarga nisbatan qiziqishini orttirish maqsadida har bir metodika topshirig‘ini musobaqalashish shaklida tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bolalarga topshiriqlarni bajarish tushuntirilib, ko‘rsatma berilayotganda: “Qani, bu topshiriqni kim eng yaxshi bajarar ekan?”, “Bu topshiriq bo‘yicha kimlar g‘olib chiqar ekan?”, “Kimniki chiroyliroq?” kabi musobaqalashishga yo‘naltiruvchi chaqiriqlar aytiladi.

Dizartriyali bolalarda sensomotor sohaning rivojlanishi nutq faoliyatining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, afferent va efferent buzilishlar bilan bog‘liq kamchiliklarni bartaraf etishda neyropsixologik yondashuv asosida tashkil etilgan korreksion-logopedik ishlar yuqori samaradorlikka ega. Maxsus ishlab chiqilgan dastur sensomotor jarayonlar, praksis va sensor-gnostik funksiyalarni rivojlantirish orqali bolalarning nutqiy va kognitiv faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Dizartriyali bolalarning sensomotor sohasini rivojlantirishda neyropsixologik yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, afferent va efferent tizimlardagi buzilishlar bolalarning nutq faoliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi va ularni bartaraf etish uchun neyropsixologik diagnostika hamda korreksion-logopedik ishlardan samarali foydalanish zarur. Maxsus ishlab chiqilgan ta‘limiy dastur sensor-motor, gnostik funksiyalar, praksis va umumiy harakat faolligini rivojlantirish orqali bolalarning nutqiy va kognitiv ko‘nikmalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, dizartriyali bolalar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar individual yondashuv va ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish asosida tashkil etilganda

yanada samarali bo‘ladi. Logopedik va neyropsixologik faoliyatning kompleksligi bolalarning sensor-motor integratsiyasini mustahkamlash, harakat va nutq aktlarini rejalashtirish hamda nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Natijada dizartriya bolalarning umumiy rivojlanishi, nutqiy va kognitiv faoliyati sezilarli darajada yaxshilanadi, ularning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Ushbu natijalar dizartriya bolalar rivojlanishida neyropsixologik yondashuvni amaliyotga joriy etish zarurligini tasdiqlaydi va pedagogik-logopedik ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ayupova M. Y. Logopediya: darslik. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
2. Архипова Е. Ф. Стертая дизартрия у детей. — М.: АСТ: Астрель, 2007.
3. Achilova S. J. Dislaliya. Dizartriya: o‘quv qo‘llanma. — Chirchiq, 2021.
4. Achilova S. J. Maxsus maktabgacha ta’lim muassasalarida dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishda logopedik ish turlari // Maktab va hayot. — Toshkent, 2021. — № 1.
5. Белякова Л. И., Волоскова Н. Н. Логопедия. Дизартрия. — М.: Владос, 2009.
6. Визель Т. Г. Основы нейропсихологии: учеб. для студентов вузов. — М.: АСТ: Транзиткнига, 2006. — 384 с.
7. Глозман Ж. М., Соболева А. Е., Титова Ю. О. Нейропсихологическая диагностика детей дошкольного возраста. — М., [б. г.].
8. Никандров В. В. Психомоторика: учеб. пособие. — СПб.: Речь, 2004. — 104 с.
9. Сенсомоторное развитие дошкольников на занятиях по изобразительному искусству: пособие для педагогов дошкол. учреждений. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2001. — 224 с.
10. Семенович А. В. Нейропсихологическая диагностика и коррекция в детском возрасте: учеб. пособие для высш. учеб. заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2002.